

O`TKIR GEMORRAGIK LEYKOENSEFALIT

O`tkir gemorragik leykoensefalit – o`tkir tarqoq ensefalomielitning og`ir klinik turi. Bosh miya katta yarim sharlari va miya ustuni oq moddasining diffuz zararlanishi bilan kechadi. Demiyelinizasiya kuzatilgan barcha joylarda perdiapedik qon quyilishlar, perivaskulyar shish, kapillyarlar destruksiyasi va ishemik o`choqlar aniqlanadi. Kasallik o`tkazilgan virusli infeksiyadan keyin o`tkir rivojlanadi. Klinik simptomlar 3–4 kun ichida shakllanadi, ya`ni meningeal simptomlar, epileptik xurujlar, zo`rayib boruvchi og`ir falajliklar (gemiparez, tetraparez) va psevdobulbar buzilishlar paydo bo`ladi. Miya shishi zo`rayib boradi, meningeal simptomlar kuchayadi va bemor hushini yo`qotib, komaga tushadi. Likvor kuchli bosim bilan chiqadi, unda ksantoxromiya va leykositar pleositoz aniqlanadi. Ko`z tubida ko`ruv nervining dimlanishi va atrofiyasi kuzatiladi. MRT da turli hajmdagi sklerotik va ishemik o`choqlar aniqlanadi. Kasallik zo`rayib boradi va ko`pincha o`lim bilan tugaydi.

Manba: © Z. Ibodullayev. Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.

© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi

© www.asab.uz